

22 Qo'chqarovich, K. U. (2026). REY BREDBERINING "ERTAGA QIYOMAT" HIKOYASIDA APOKALIPSIS VA BADIY PSIXOLOGIZM. "Alfraganus" xalqaro Ilmiy Jurnali, 3(4), 11-21.

**NOSIR AL-MUTARRIZIYNING "RISALATUN FI-N-NAHV" ASARIDA IZOFA
MASALASI VA UNING INGLIZ TILI BILAN QIYOSIY TAHLILI**

Salohiddinova Aziza Nuriddin qizi

Alfraganus universiteti Filologiyasi fakulteti

1-kurs 25-02 guruh talabasi

Raxmonov Azimjon Komilovich

Alfraganus universiteti Filologiyasi fakulteti

Tillarni o'qitish markazi rahbari

Annotatsiya. Mazkur maqolada Nosir al-Mutarriziyning "Risalatun fi-n-nahv" asarida izofa (الإضافة) konstruktsiyasining grammatik xususiyatlari va uning ilmiy talqini tahlil qilinadi. Shuningdek, arab tilidagi izofa konstruktsiyasi ingliz tilidagi egalik (*possessive*) va of-construction shakllari bilan qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari hamda zamonaviy arab tilini o'qitish metodikasidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Nosir al-Mutarriziy, Risalatun fi-n-nahv, izofa, arab tili, ingliz tili, qiyosiy tilshunoslik, nahv, mudof, mudof ilayh.

Abstract. This article examines the grammatical features of the *idāfa* (construct state) in Nasir al-Mutarrizi's *Risālatun fī al-Naḥw* and analyzes his scholarly interpretation of this grammatical structure. The study also provides a comparative analysis of the Arabic *idāfa* construction and English possessive forms and of-constructions, highlighting their similarities, differences, and significance for contemporary Arabic language teaching.

Keywords: Nasir al-Mutarrizi, *Risālatun fī al-Naḥw*, *idāfa*, Arabic language, English language, comparative linguistics, syntax, construct state.

Kirish. Arab tilidagi izofa (الإضافة) nahv ilmining muhim grammatik hodisalaridan biri bo'lib, otlar o'rtasidagi egalik, mansublik va boshqa semantik munosabatlarni ifodalashda muhim o'rin tutadi. Klassik nahv olimlari ushbu mavzuni turli yondashuvlar asosida izohlagan bo'lib, Nosir al-Mutarriziyning «Risālatun fi'n-naḥw» asarida ham izofa masalasi ilmiy asosda yoritilgan.

Bugungi kunda qiyosiy tilshunoslik nuqtai nazaridan arab va ingliz tillaridagi egalik munosabatlarini taqqoslash nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mazkur maqolada Mutarriziy tomonidan izofa konstruktsiyasiga berilgan ta'rif va grammatik qarashlar tahlil qilinib, ular ingliz tilidagi 's egalik shakli hamda of-construction bilan qiyosiy jihatdan o'rganiladi.

Asosiy qism. Qaratqich birikmasi arab tilida izofa deb ataladi. Ingliz tilidagi (noun) of (noun) tuzilmasiga to'g'ri keladi. Izofa - bu "qo'shmoq, qo'shib qo'ymoq,, ma'nosini bildiruvchi إضافةfe'lidan yasalgan masdardir مصدر. Izofa ikki unsur dan iborat: muzof مضاف(Object possessed) va muzof ilayhi مضاف إليه(Possesser). Muzof va muzof ilayhi doim ikkita ismdan tashkil topadi, hech qachon fe'l yoki yordamchilardan (particle) emas. Muzof ya'ni, birinchi ot ikkinchi otga qo'shiladigan bo'lsa, uni majrur holatiga kiritadi, ingliz tilida esa bu genetive case deb ataladi. Muzof ilayhi esa birinchi otga qo'shib, unga aniqlik va mazmun beradi."The genetive case, sometimes referred to as a second case, is a grammatical form of noun, in relation to another noun, the first one modifying the second. According to Huddleston and Pullum (2002), it is important to distinguish the case from the syntactic function,,⁹⁵ Ya'ni, ingliz tilida qaratqich kelishigi otning grammatik shakli bo'lib, birinchi ot ikkinchisining ma'nosini aniqlaydi. Huddleston va Pullum (2002) ga ko'ra, kelishikni sintaktik funksiyasidan ajratib tushunish muhimdir. Masalan: لَوْنُ السَّمَاءِ (osmon rangi).

Bu yerda rang muzof, osmon muzof ilayhi. Arab tili bilan ingliz tilidagi izofali birikmaning qismlari joylashish o'rni bir-biriga o'xshashdir. Qaralmish oldin,

⁹⁵ Monika Pieglóvá. The semantics of the genetive case in English. Jihočeská univerzita v Českých Budějovicích Filozofická fakulta Ústav anglistiky.

qaratqich esa keyin joylashadi.

Muzofga tegishli bir qancha qoidalar mavjud:

- “Aniqlanmishi kimsa yoki narsani bildiradigan ot yoki ot o'rnida kelgan so'z bilan ifodalangan izofa "haqiqiy" (ma'naviy - deb ataladi). Bunday izofada muzof "Al" artiklini olmaydi,,⁹⁶
- Muzof tanvin qo'shimchasini qabul qilmaydi, chunki u allaqachon egalik munosabatiga ko'ra aniqlik kasb etgan bo'ladi. Ya'ni, bu holatda muzof muzof ilayhiga tobe bo'ladi. Muzof ilayhi aniq holatda bo'lsa, muzof ham aniq holatda deb hisoblanadi. Lekin ingliz tilida qaratqichga aniqlik belgisini berish uchun artikl qo'yilishi lozim. Masalan:

بَيْتُ الْمُدِيرِ (ma'lum direktorning ma'lum uyi)

بَيْتُ مُدِيرٍ (noma'lum direktorning uyi)

- “Izofaning aniqlanmish ikkilik sonda yoki tog'ri koplikning muzakkar jinsida bolsa, u qaysi kelishikda turgan bo'lmasin, oxiridagi َ va ِ harfi tushib qoladi,,⁹⁷ Masalan:

مُعَلِّمُو الصَّفِّ

Izofaning boshqa xususiyatlari ham mavjud:

- Izofa bir predmetning ikkinchi predmetga yoki shaxsga tegishli ekanligini bildiradi. Masalan:

حَدِيقَةُ أَحْمَدَ (Ahmadning bog'i)

Bu izofada bog' Ahmadga tegishli ekanligi qaratqich vositasida tushuniladi. Ingliz tilida esa qaratqich ma'nosi „of“ old qo'shimchasi yoki otning oxiriga „s“ qo'shimchasi qo'shish orqali ifodalanadi.

- “Izohlovchi va izohlanmish munosabatini ifodalashda ham xizmat qiladi. Bunda izohlovchi muzof, izohlanmish muzof ilayhi bo'ladi,,⁹⁸ Masalan:

مَجَلَّةُ الْمُصَوِّرِ ("Al-musovvir" gazetasi)

- Predlogdan (preposition) keyin kelgan ot muzof ilayhi bo'ladi. Masalan:

تَحْتَ الشَّجَرَةِ (daraxt ostida)

⁹⁶ Abduhafiz Abdujabborov. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent Islom universiteti, 2005.

⁹⁷ . M. Hasanov, M. Abzalova “Movarounnah” Arab tili darslari. – T.: 2006. – 284 b.

⁹⁸ Н. Иброҳимов, М. Юсупов, Ф. Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004 й.

- Muzof ilayhi ish harakatining va otning paytini aniqlashga ham xizmat qiladi. Bu qoida arab va ingliz tili grammatikasi uchun xos xususiyatdir. Masalan:

عُطْلَةُ الشَّيْءِ (Qishki kanikul)

Qishki so'zi otning ya'ni, kanikulning paytini bildiriyapti.

إِذَا عَةُ الْمَسَاءِ (Oqshomgi eshittirish)

Oqshomgi so'zi ish harakatning ya'ni, eshittirishning paytini bildiriyapti.

Izofada birikma olmoshlariga xos masalalar:

- Otga birikma olmoshi (possessive pronouns) biriksa, ot muzof, birikma olmoshi esa muzof ilayhi bo'lib shakllanadi. Arab tilida birikma olmoshi otga qo'shilib, uning oxirida keladi.

Ingliz tilida ot bilan egalik olmoshi birikma hosil qilganda alohida-alohida ikkita so'z hisoblanadi ya'ni, bir-biridan ajratib yoziladi. Egalik olmoshi otdan oldin joylashadi. Masalan:

كِتَابُهُ (uning kitobi)

- Muzof ilayhiga birikma olmoshlari qo'shilib kelsa, gapga yanada aniqlovchi mazmun beradi. Masalan:

عُرْفَتُهَا – عُرْفَةُ عَزِيزَةٍ

- Ot qaratqich kelishigida yoki qo'shimchasi bilan tugaganda, quyidagi birikma olmoshlaridagi zamma tovushi kasra tovushiga o'zgaradi

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz lozimki, izofa birikmasi mavzusi arab tili grammatikasi va morfologiyasida muhim o'rin tutadi. Uni nafaqat ingliz tiliga qiyoslab, balki boshqa tillar bilan ham qiyoslab o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi. Izofa birikmasi shartlari va qoidalarini yetuk arab olimlaridan o'rganish tavsiya qilinadi va shuningdek, video darsliklar, arab tilidan tarjima qilingan bir qator asarlar, ilmiy maqolalar ham shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Monika Piegllová. The semantics of the genetive case in English. Jihočeská univerzita v Českých Budějovicích Filozofická fakulta Ústav anglistiky.

2. Abduhafiz Abdujabborov. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. Toshkent Islom universiteti, 2005.
3. M. Hasanov, M. Abzalova "Movarounnah" Arab tili darslari. – T.: 2006. – 284 b.
4. Н. Иброҳимов, М. Юсупов, Ф. Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004 й.
5. Ҳасанов М., Абзалова М. Араб тили дасрлари /Ўқув қўлланма. – Т., 2016.
6. MUTARRIZIYNING "RISOLATUN FIN NAHV" ASARI MO'JAZ GRAMMATIK MANBA. (2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4), 85-88. <https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
18. Jo'rayeva, M. A. SCHOLARS WHO CONTRIBUTED TO THE DEVELOPMENT OF MEDICINE IN MEDIEVAL CENTRAL ASIA.
19. Fatilloev, M., & Sh, S. (2020). Linguopoetic Analysis Of The Arabic Lexical Unit "Malak" In The Epic "Hayrat Ul-Abrar" By Alisher Navai. *THE AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE AND EDUCATION INNOVATIONS* Учредители: *The USA Journals*, 2(9), 493-498.
20. RAXIMJONOV, M. (2025). PUBLIC OPINION ABOUT KHOJA AKHRARI VALIA AND MIRZA ULUGBEK. *The Journal of Interdisciplinary Human Studies*, 1(3), 73-77.
21. Nugmanovich, R. M. Self-education And Self-improvement. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 998-1001.
22. Турсуналиева, М. А. (2021). "ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО" ДОСТОНИНИНГ НАЪТ ҚИСМИНИНГ БЕРИЛИШИ (ОГАХИЙ ТАРЖИМАСИ ҚЎЛЁЗМАЛАРИ АСОСИДА). *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 357-360.
23. Victoria, M. (2022). Peculiarities of the functioning of borrowings in the media of the arab countries.